**"Tasdiqlayman"**

O'zbekiston oshpazlar
Uyushmasi raisi

______________ A.Umarov

2021 yil "____" ______________

**"Kelishildi"**

Maktabgacha ta'lim vazirining birinchi
o'rinbosari

______________ B.Onorboyev

2021 yil "____" ______________

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida" 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son qarori 51-bandiga muvofiq Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan oshxonalardagi oshpaz va oshpaz yordamchilari uchun sog'lom ovqatlanish mavzulari bo'yicha 2021- 2022 yillarga mo'ljallangan**

# CHORA-TADBIRLAR REJASI

| № | Tadbirlar | Bajarish muddati | Moliyaviy manbalar | Bajarish uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan oshxonalardagi oshpaz va oshpaz yordamchilarining ma'lumoti, mutaxassisligi, ish tajribasi, malakasini oshirganligi hamda tegishli diplomga ega ekanligi bo'yicha xatlovdan o'tkazish va ularning malakasini oshirish reja jadvalini shakllantirish. | 2021 yil sentabr | - | Maktabgacha ta'lim vazirligi |
| 2. | Maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan oshxonalardagi oshpaz va oshpaz yordamchilarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslarini o'quv reja va dasturlarni qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash. | 2021 yil sentabr | - | O'zbekiston oshpazlar uyushmasi, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3. | Maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan oshxonalardagi oshpaz va oshpaz yordamchilari uchun sog'lom ovqatlanish mavzulari bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish *(o'qitishning zamonavi onlayn va internet tarmoqlari mavjud bo'lmagan joylarda oflayn usullarida ).* | Belgilangan reja asosida | - | O'zbekiston oshpazlar uyushmasi, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi,o'quv ishlari boshqarmasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi |
| 4. | Tarbiyalanuvchilarni to'g'ri ovqatlanishini tashkil etishni yana-da takomillashtirish maqsadida oshpazlarni qayta tayyorlash kurslarini tashkil qilish *(o'qitishning zamonaviy onlayn va internet tarmoqlari mavjud bo'lmagan joylarda oflayn usullarida )* | Belgilangan reja asosida | - | O'zbekiston oshpazlar uyushmasi, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi, Maktabgacha ta'lim vazirligi |
| 5. | Maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan oshxonalardagi oshpaz va oshpaz yordamchilari uchun umumiy ovqatlanish, servis va sog'lom ovqatlanish bilan bog'liq yangiliklar, sohada yuzaga kelayotgan o'zgarishlar, sog'lom va to'g'ri ovqatlanish bilan bog'liq zamonaviy tajribalar, o'zbek milliy pazandachilik xususiyatlari va an'analari yuzasidan maxsus treninglar hamda mahorat darslarini onlayn shaklda tashkil etish. | 2021-2022 yillar Belgilangan reja asosida | - | O'zbekiston oshpazlar uyushmasi, uyushmaning hududiy vakillari, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi, Maktabgacha ta'lim vazirligi |
| 6. | Maktabgacha ta'lim tashkilotlari oshxonalarini texnologik jihozlar va anjomlar bilan ta'minlanishi va joylashtirish bo'yicha tavsiyalar berish va oshxona faoliyatini amalga oshirishda yordam ko'rsatish. | 2021-2022 yillar | - | O'zbekiston oshpazlar uyushmasi, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi |
| 7. | Maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi ta'lim tashkilotlarida oshxonalarida ko'p yillardan beri faoliyat yuritib kelayotgan, tajribali, mahoratli va o'z ishini yaxshi o'zlashtirgan ammo mutaxassisligini tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan oshpazlarni validatsiyadan o'tkazish va ularning kasbiy mahorati bo'yicha toifalarini belgilash. | 2021-2022 yillar | - | O'zbekiston oshpazlar uyushmasi, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi,o'quv ishlari boshqarmasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi |